MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

# Singapur ta'lim tizimining kuchli tomonlari

marshall cavendish education

© Barcha huquqlar himoyalangan

# Singapur ta'lim tizimining kuchli tomonlari

Puxta, istiqbolli va muvozanatli o'quv dasturi

Yaxshi ta'minlangan maktablar

Jamiyatning kuchli qo'llab-quvvatlashi va ta'limga bo'lgan ishonchi




Yuqori sifati o'qituvchilar va maktab liderlari

Samarali tajribalarni baham ko‘rish tizimi

# Puxta, istiqbolli va muvozanatli o'quv dasturi

Ham chuqur bilimga, ham amaliy ko'nikmalarga urg'u berish

Dolzarblikni ta’minlash uchun doimiy tuzatish va yangilanishlar




Real hayot bilan bog‘liq o‘zaro bog‘langan fanlar

Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga urg‘u berish

# Yuqori sifatli o'qituvchilar va maktab liderlari

Puxta  tayyorgarlik va uzluksiz kasbiy rivojlanish

Strategik rejalashtirish va pedagogik liderlik uchun dasturlar

O'qituvchilarni ruhlantirish uchun rag‘batlantirish va e'tirof dasturlari

Ijobiy maktab madaniyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish



# 3. Yaxshi ta'minlangan maktablar

Zamonaviy jihozlar va texnologiyalardan foydalanish

Maslahat kengashlari va maxsus ta'lim kabi qo‘shimcha xizmatlari



Yetarlicha o'quv materiallari va davlatning homiyligi

O'quvchilarning turfa ehtiyojlarini inobatga olgan holda kasbga yo'naltirish

# 4. Yaxshi tajribalarni baham ko‘rish tizimi

Fikr almashish uchun Singapur O'qituvchilari Akademiyasi kabi platformalar

Ta'lim tizimi bo'ylab muvaffaqiyatli dasturlarni kengaytirish



Loyihalar va tashabbuslar bo‘yicha maktablar o‘rtasida hamkorlik

Barqaror rivojlanish uchun hamkorlik madaniyati

# 5. Jamiyat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash va ta'limga nisbatan ishonch

Ota-onalar, mahalliy hamjamiyat va tadbirkorlik subyektlarining faol ishtiroki

Jamiyat tomonidan umrbod ta’lim tamoyiliga urg‘u berilishi

Ota-onalarning ta'limdagi yuqori faolligi

Real hayotga bog‘langan ta’lim imkoniyatlarini taqdim qilishda jamiyatning hamkorligi

# Har qanday ta'limning asosiy maqsadi

1. Har qanday ta’lim tizimining asosiy maqs farzandlarimizni kelajakka tayyorlashdir

2. Kelajak bizga noma'lum

3. Bu bizning o'quvchilarimiz qancha tez o'rganishi haqida emas

4. Ular tezlikda o‘rganishi, o‘rgangani unutishi va qayta o‘rganishi mumkinmi

5. Biz o'quvchilarimizni ke muammolarni kechagi yechimlar bilan anglashg tayyorlayapmizmi?

6. Buning o'rniga, biz o'quvchilarni ertangi kunning qiyinchiliklariga kelajakdagi ehtimoliy yechimlar bilan tayyorlashimiz kerak

# Singapurda o‘qitish tartibi

01 Singapurda barcha sinflar uchun dastur va yo‘riqnomalar aniq yozilgan bo‘lib, u ta’lim tizimining har bir darajasida hamda har bir fanda qo‘llaniladi

02 O‘qitish ketma-ket, asosan amaliyotga yo‘naltirilgan va pragmatik bo‘lib, Sharq va G‘arb o‘qitish an’analari aralashmasiga asoslangan

03 Singapur markazlashgan ta’lim tizimini tashkil etdi (garchi boshqa mamlakatlar so‘nggi paytlarda markazsizlashtirishga o‘tayotgan bo‘lsa-da), boshqa davlat institutlari bilan yaxshi integratsiyalashgan tizimni joriy qildi, izchil va yaxshi moliyalashtirilgan jarayonni amaliyotga tadbiq etdi.

04 O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarning avtoritar shakllariga rioya qilishadi va ular sinfda aytilmagan qoidalarga asoslanadi. “O‘qituvchi gapiradi va bolalar tinglaydi”, maktablarda qat’iy ierarxiya va byurokratiya mavjud, baholar muhim, bilim amaliy va o‘qituvchi sinfda mas’uldir. Bu davlat ta’lim tizimini tarixiy tajriba, talab va ko‘rsatmalar va madaniy jihatlarning noyob kombinatsiyasi nihoyatda samarali tizimga olib keldi.

05 Shu bilan birga, tizim moslashuvchan bo‘lib, tajribali mutaxassislar tomonidan boshqariladi. Singapur ta’lim tizimi milliy standartlarga asoslangan bo‘lib, bu har bir maktab bitiruvchisi bajarishi kerak bo‘lgan talablarni belgilaydi - o‘quvchining tayyorgarligi yakuniy imtihonlar bilan tekshiriladi

06 Singapurlik o‘qituvchi o‘z shogirdlarining natijalari uchun javobgardir, bu esa o‘qituvchilarni yo‘riqnomalarga qat’iy rioya qilishga va bolalarni testlarga tayyorlashda “murabbiylik” qilishga undaydi.

# Singapurda maktab va o‘qituvchiga e’tibor

Singapurda Davlatning yirik xarajatlari (misol tariqasida 2003-2017- yillarda 109 million funt sterling  ajratilgan) pedagogik tadqiqotlarga  va ta’limni boshqarish, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan

Davlat o‘qituvchilar va maktab direktorlarini tanlash, tayyorlash va kasbiy o‘sishini muhim deb hisoblaydi va bu ta’lim tizimini rivojlanishining eng muhim nuqtasi hisoblanadi




O‘qitish usullari va o‘quvchilar rivojlanishidagi farqni ikkita eng yaxshi maktabda kuzatish mumkin

Singapurda ta’lim bepul. Faqatgina moliyaviy jihatdan ota-onalardan talab qilinadigan narsa bu maktab ehtiyojlari uchun kichik hissadir

# Singapur ta’lim tizimining xususiyatlari va afzalliklari

Singapur ta’lim tizimi dunyodagi eng yosh va ayni paytda eng samarali tizimlardan biridir. Ta’lim jarayonining asosini mustamlakachilikning merosi sifatida Britaniya tizimi asosida tashkil etilgan



Ta’lim tizimi o‘quvchilarni shaxsiy fazilatlari, undan tashqari har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini rivojlantirish printsipi asosida qurilgan. O‘quvchilarga yondashuv qat’iy, lekin ayni paytda individualdir. Maktab har bir bolaga iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga yordam berishga intiladi. Undan tashqari fikrlash qobiliyatiga katta ahamiyat beriladi

Turli xil fanlarning katta to‘plami ostida Singapur ta’lim tizimining asosiy maqsadi yotadi - bu bolaning keyingi qaysi yo‘nalishda harakatlanishi kerakligini tushunishidir.

Singapur ta’lim tizimining yana bir samarali jihati o‘quvchilarni kichik guruhlarga birlashtirishdir. Shunday qilib, ular asosiy masalani muhokama qilish, hamrohi bilan o‘z fikrlarini baham ko‘rish va uning fikrini tinglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqsad suhbat emas, balki uy vazifasini tekshirish bo‘lsa ham, bolalar daftarlarini almashtiradilar va sinfdoshlaridan mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarni qidirishni o‘rganadilar.

# Singapur ta’lim tizimining asosiy xususiyatlari



Birinchisi

bu o‘quv dasturi juda ham puxta ishlab chiqilgan istiqbolli, zamon talabiga javob beradigan ta’lim dasturi bo‘lishi lozim. kontent mavzu, pedogogika va baholash tizimi.



Ikkinchisi

bu malakali o‘qituvchilar, maktab menedjmenti va  resurslar ta’minoti. Bu maktabdagi o‘qituvchilarning ta’lim berish jarayonining sifati, maktab liderlarining tajribasiga, malakasiga ham juda katta bog‘liq




Uchinchisi

bu tajriba va fikr almashish tizimi

# Dasturning kuchi qadriyatlarda



Qadriyatlar Singapurdagi muvaffaqiyatli ta’lim tizimining asosiy dasturiga singdirilgan. Va uning yadrosida-markazida asosiy qadriyatlar, degan tushuncha turadi. Chunki Singapurda asosiy e’tibor o‘quvchilarimizga qadriyatlarni o‘rgatishga qaratilgan. Hammamiz Gollivud filmlarini ko‘rganmiz. “Qo‘lingdan kelsa tutib ol” filmini ko‘rganmisiz? Leonardo di Kaprio bosh qahramon rolini o‘ynagan. Judayam bir talantli zo‘r ayg‘ir bola. Bu  XXI asrga tegishli bo‘lgan barcha kompetensiyalarga ega bola. Lekin uning qadriyatlari bormi. Lekin biz o‘z bolalarimizni tarbiyalashda faqat talantli zo‘r bolalarni taribiyalashimiz kerak emas, ularning orqasidan nima qadriyatlar turganini ham e’tibor berishimiz kerak



# O‘quvchilarda ijtimoiy emotsional xususiyatlarni rivojlantirish

Ular beshta kompetensiyani tashkil etadi. Birinchisi o‘zini-o‘zi anglash. Siz atrofingizdagi odamlar bilan gaplashishdan oldin o‘zingizni kuchli va zaif tomonlaringizni bilishingiz kerak. Ikkinchi kompetensiya o‘zini-o‘zi boshqarish. O‘zini o‘zi boshqarish o‘zini tanishdan boshlanadi. O‘zingizni kuchli va zaif tomonlaringizni yaxshi bilsangiz, o‘zingizni bemalol boshqara olasiz. Uchinchisi ijtimoiy masalalardan xabardor bo‘lish. to‘rtinchi ijtimoiy emotsional jihatimiz bu muloqot o‘rnatish va muloqot o‘rnatishda boshqaruv



# Bizga qanday savollaringiz bor?



© Barcha huquqlar himoyalangan

# E'tiboringiz uchun rahmat!

@mceducation

T +65 6213 9288 1 New Industrial Road, #01-01, Singapore 536196 www.mceducation.com

marshall cavendish education

© Barcha huquqlar himoyalangan